

KORRUPSION JINOYATLARNING LATENTLIGI: SABABLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

Dusanov Nodir Sirojiddin o‘g‘li

Abu Rayhon Beruniy universiteti yuridik fakulteti stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda korrupsion jinoyatlarning yuqori latentlik darajasi, uning kelib chiqish sabablari va bu ko‘rsatkichni kamaytirish yo‘llari qisqacha tahlil qilingan. So‘nggi yillardagi rasmiy statistika asosida aniqlangan jinoyatlar sonining o‘sishi ko‘pincha korrupsiyaning haqiqiy ko‘payishidan emas, balki uni fosh etish faoliyatining kuchayishidan dalolat berishi mumkinligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *korrupsiya, latent jinoyatchilik, korrupsion jinoyatlar, fosh etish darajasi, komplayens nazorat, statistik tahlil, jinoyat-huquqiy siyosat.*

Korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga eng katta xavf tug‘diruvchi ijtimoiy-huquqiy hodisalardan biri bo‘lib, uning oldini olish va unga qarshi kurashish har bir davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Biroq korrupsion jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini baholashda eng katta to‘siqlardan biri — bu ushbu jinoyat turining yuqori latentlik darajasidir. Kriminologik nuqtai nazardan korrupsion jinoyatlar boshqa jinoyat turlariga nisbatan eng yuqori latentlikka ega hodisalar qatoriga kiradi, chunki bunday jinoyatlarning tabiati o‘ziga xos xususiyatga ega — pora beruvchi ham, pora oluvchi ham, qoida tariqasida, bir-biridan manfaatdor bo‘lib, ikkala tomon ham sodir bo‘lgan huquqbuzarlik haqida huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilishga umuman qiziqmaydi.

Korrupsion jinoyatlarning yuqori latentligini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh — bu jinoyatning “ikki tomonlama manfaatdorlik” xususiyati bo‘lib, bunda jabrlanuvchi tushunchasi amalda mavjud bo‘lmaydi yoki noaniq bo‘lib qoladi, chunki pora beruvchi shaxs ham o‘z manfaatini ko‘zlab jinoyatga ishtirok etadi. Ikkinchi guruh — institutsional sabablar bo‘lib, bunga davlat organlari va tashkilotlar ichidagi komplayens va ichki nazorat tuzilmalarining samarasiz faoliyati, ularning profilaktika vositasi sifatida emas, balki faqat hisobot taqdim etish bilan cheklanib qolishi kiradi. Uchinchi guruh — ijtimoiy-psixologik sabablar bo‘lib, bunga fuqarolarning korrupsiyaga nisbatan “kundalik hayotning bir qismi” sifatida munosabatda bo‘lishi, huquqbuzarlik haqida xabar berish madaniyatining yetarli shakllanmaganligi hamda xabar beruvchilarni himoya qilish mexanizmlariga bo‘lgan ishonchning pastligi kiradi.

O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi rasmiy statistikasini tahlil qilish korrupsion jinoyatlar sohasidagi latentlik muammosining amaliy ko‘rinishini yaqqol namoyish etadi. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda respublika bo‘yicha korrupsiyaga oid 4 649 ta jinoyat ishi bo‘yicha 7 354 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan, bu ko‘rsatkich 2023-yilga (6 535 nafar) nisbatan 12,5 foizga ko‘pdir. 2025-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich yana oshib, 7 517 nafarni tashkil etgan. Korrupsiya natijasida davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar miqdori ham keskin o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2022-yilda 2,04 trillion so‘mni, 2023-yilda 1,4 trillion so‘mni, 2024-yilda esa 2,81 trillion so‘mni, 2025-yilda 2,9 trillion so‘mdan ortig‘ini tashkil etgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbariyati bunday o‘shishni bevosita huquqni muhofaza qilish organlari

faoliyatining kuchayishi bilan bog‘lamoqda, bu esa aynan “aniqlangan” jinoyatlar sonining o‘sishi latent qismning kamayishidan emas, balki uni fosh etish tizimining takomillashuvidan dalolat berishini ko‘rsatadi.

Sohalar kesimidagi tahlil ham latentlik muammosining o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, korrupsion jinoyatlarning eng ko‘p qismi maktabgacha va maktab ta’limi, sog‘liqni saqlash hamda kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohalarida aniqlangan, bu sohalarida korrupsiyaga oid jinoyatlar salmog‘i yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, aynan shu sohalar — fuqarolarning kundalik hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, nisbatan kichik hajmdagi “maishiy korrupsiya” ko‘proq tarqalgan sohalar — eng yuqori latentlikka ega bo‘lgan yo‘nalishlar hisoblanadi, chunki bunday holatlarda fuqarolar odatda arizani rasmiylashtirishdan ko‘ra, muammoni “tezroq hal qilish” yo‘lini afzal ko‘radi. Yirik miqyosdagi korrupsion jinoyatlar esa, aksincha, ko‘proq moliyaviy-tekshiruv faoliyati natijasida fosh etiladi, biroq ularning tashkiliy jihatdan murakkabligi tufayli aniqlash yanada qiyinlashadi.

Korrupsion jinoyatlarning latentligini kamaytirish bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, davlat organlari va tashkilotlardagi komplayens nazorat tuzilmalarining faoliyatini shunchaki hisobotbozlikdan real profilaktika vositasiga aylantirish, ularning mustaqilligi va samaradorligini oshirish zarur. Ikkinchidan, korrupsiya haqida xabar beruvchi (“vistlbouer”) shaxslarni har tomonlama himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish, ularning shaxsiy va professional xavfsizligini kafolatlash lozim. Uchinchidan, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, raqamli davlat xizmatlarini yanada kengaytirish orqali fuqaro-amaldor o‘rtasidagi bevosita muloqotni qisqartirish, shu bilan korrupsiogen omillarni kamaytirish maqsadga muvofiqdir. To‘rtinchidan, korrupsiyaning latent qismini ilmiy asosda baholash uchun statistik hisobotlar bilan bir qatorda mustaqil sotsiologik so‘rovlar va ekspert baholash usullarini muntazam qo‘llash tavsiya etiladi, bu esa davlat siyosatini shakllantirishda faqat “ko‘rinadigan” statistikaga emas, balki haqiqiy vaziyatga tayanish imkonini beradi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, korrupsion jinoyatlarning yuqori latentligi ushbu jinoyat turiga qarshi kurashish samaradorligini baholashda alohida metodologik ehtiyotkorlikni talab qiladi. Rasman aniqlangan jinoyatlar sonining o‘sishi ko‘pincha korrupsiyaning ko‘payishidan emas, balki uni fosh etish faoliyatining faollashuvidan dalolat berishi mumkin, shu sababli bu ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri talqin qilish jinoyat-huquqiy siyosatning ilmiy asoslanganligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Komplayens tizimlarini kuchaytirish, xabar beruvchilarni himoya qilish va raqamlashtirish orqali korrupsiogen muhitni qisqartirish — ularning barchasi nafaqat rasmiy statistikadagi ko‘rsatkichlarni, balki jinoyatning haqiqiy, latent qismini ham kamaytirishga xizmat qiluvchi kompleks yondashuvni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismailov B.I. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020.
2. Rustambayev M.H. Jinoyat huquqi. Maxsus qism: Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.

5-Avgust, 2026-yil

3. Burxanov A. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruza. – Toshkent: Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, 2025.

4. Rasulev A.K. Axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish muammolari. – Toshkent, 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Kriminologik tadqiqotlar instituti. Korrupsion jinoyatchilik holati to‘g‘risida statistik ma’lumotlar to‘plami. – Toshkent, 2025.

